

TILSHUNOSLIKDA TERMINOLOGIK TADQIQOTLAR

Kazakova Laylo Madorimovna

O'zMU tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19564437>

Annotatsiya: Ushbu maqolada terminlar borasida olib borilgan ayrim izlanishlarning diqqat markazida bo'lgan masalalar xususida fikr yuritiladi. Bundan tashqari terminlarning ayrim xususiyatlari sifatida semantik jihati bo'yicha mulohaza yuritildi.

Kalit so'zlar: terminologiya, termin, semantika, yasaliş jihati, boyish manbai.

Bugungi kunda tilshunoslikning turli sohalari bo'yicha keng ko'lamlı tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ular orasida terminlarga bag'ishlangan ishlar alohida o'ringa ega. Jahon hamda o'zbek tilshunosligida o'rganilish tarixiga ega bo'lgan terminologiya bir tomondan ko'p o'rganilgan soha sanalsa, ikkinchi tomondan o'rganilishi lozim bo'lgan tomonlari mavjudligi bilan dolzarb yo'nalishlardan biri sanaladi.

Terminlarning struktur jihatidan tortib ularning ma'no xususiyatlari lingvistikada ko'pchilik tadqiqotlarning mazmunini tashkil qilgan. Terminologiya ikki ma'noda qo'llanilib, ular quyidagilar:

1. Fan, texnika, kasb-hunarning ma'lum bir sohasida qo'llanadigan terminlar yig'indisi. Masalan: tilshunoslik terminologiyasi, harbiy terminologiya kabi.

2. Lingvistikaning terminlarni o'rganish hamda ularni tartibga solish bilan shug'ullanuvchi bo'limi [2; 74]. Ko'rinib turganidek, terminologiya tushunchasi ikki ma'noga ega. Terminologik izlanishlarda quyidagilarni tadqiq qilish hamisha dolzarb bo'lganligi ma'lum:

- maydonni aniqlab olish;
- terminologiyaning struktur jihatı;
- tizimning boyish yo'llari;
- qatlamning tilning ichki imkoniyatlari va o'zlashmalar hisobiga boyishi;
- umumiste'mol so'zlari bilar aloqada bo'lishi;
- terminlar sinonimiyasini tadqiq qilish;
- terminlar antonimiyasini tahlilga tortish;
- terminlar tizimida polisemiya hodisasi;
- terminlar omonimiyasi kabilar.

Maqolada yuqoridagi hodisalar ketma-ketlikda ayrim misollar yordamida yoritib beriladi. Terminlar tizimidagi terminologik maydon to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, har bir fan terminologiyasi ma'lum bir miqdorni tashkil qilishi bilan birgalikda ular ma'lum maydonni tashkil qilishi bilan ahamiyatlidir. Masalan harbiy terminologiyani oladigan bo'lsak, harbiy terminologik maydon: harbiy texnika, harbiy-siyosiy, harbiy topografik, harbiy injenerlik va boshqalarni o'z atrofida birlashtira olishi va o'z o'rnida ular ham turli mavzuiy guruhlardan iborat bo'lishi bilan salmoqli miqdorni tashkil qilishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Terminlarning struktur jihati ham ko'pchilik izlanishlarda tahlilga tortilib, ularning ikki komponentdan tortib hatto yettita tarkibiy qismdan iborat bo'lishi ma'lum. Ushbu jarayon, ya'ni yasaliş usullaridan biri sifatida terminologik qatlamning tilning ichki imkoniyatlari asosida boyish yo'llaridan biri deb qaraladi. Masalan, nemis tilida harbiy terminlar tizimida ot+ot modelidagi terminlar keng tarqalgan. Jarayonga misol tariqasida *Flugzeugrakete die-aviatsion raketa, Grundpanzer der-* asosiy tank kabilarni keltirish mumkin.

Keyingi o'ringi boyish manbai sifatida o'zlashmalar aytiladi. Nemis tili harbiy terminlar qatlamida ingliz tilidan o'zlashgan terminlar uchratilsa, o'zbek tilida esa rus tilidan kirib kelgan terminlar bor va ular til terminologik qatlamining boyish manbai sifatida belgilanadi. Bundan tashqari affiksatsiya usuli ham keng tarqalgan bo'lib, yangi tushunchalar yasashda faolligi ma'lum. Ushbu jarayonda prefiksatsiya va suffiksatsiya jarayonlari nazarda tutiladi.

Ma'lumki, terminlar til leksik birligi sifatida umumiste'mol so'zlari bilan uzviy aloqadorlikda bo'lishi aytiladi [3; 46]. Misol sifatida nemis tilidagi Löffel m birligini keltiradigan bo'lsak, ushbu leksik birlik umumiste'mol qatlamda qoshiq tushunchasini ifodalasa, harbiy texnikaga oid terminlar tizimida ishga tushirish dastagi (qo'l granatasiga oid) ma'nosini ifodalab keladi.

Ma'nodosh birliklarning mavjud bo'lishi tilning umumiy qatlamida takrordan qochishga xizmat qilishi tilshunoslikda bot-bot tilga olinib keladigan jarayon bo'lsada, terminlar tizimida mavjudligi nuqtai nazardan har hil mulohazalar bildirilgan. Buning asosiy sababi terminologik birliklarning har doim aniqlikka intilishi keltiriladi. Nemis tilida *Panzerjägerrakete f*, *Panzerabwehrrakete f* terminologik birliklari- tankka qarshi raketa ma'nosida ishlatiladi.

Tildagi tushunchalar o'z o'rnida zid ma'noli bo'ladi va ushbu holat terminlar tizimida ham keng tarqalgan. Masalan, tilshunoslik terminlar tizimidagi assimilyatsiya tushunchasi nutq oqimida o'zaro ta'sir sababli tovushlarning o'xshab ketish tomonga o'zgarishi ma'nosini anglatasa, dissimilyatsiya nutq oqimida o'zaro ta'sir sababli tovushlarning noo'xshashlik (farqlanish) tomonga o'zgarishi sifatida antonimlik munosabatini ifoda qiladi [1; 32].

Tildagi tushunchalarning birdan ortiq semantikaga ega bo'lishi polisemiya bo'lib, bu holat fan birliklarini ifodalab keladigan qatlamda uchratiladi. Bu holatda shuni unutmaslik lozimki, ko'p ma'nolilikda tushuncha ifodalagan ma'nolar o'rtasida zanjirsimon bog'liqlik kuzatilsa, omonimlikda ushbu ma'no zanjirning uzilganligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Yuqorida tilga olingan jihatlardan tashqari terminlarning yana bir fan doirasidan ikkinchi fan doirasiga o'tish holati ham qiziq jarayon. Bundan tashqari boshqa bir fan tushunchasini ifodalaydigan termin ikkinchi bir fan terminining tarkibiy qismida ham uchratilishi mumkin. Ushbu holatga misol keltiradigan bo'lsak, nemis tili harbiy texnikaga oid terminlar doirasidagi *Laufkörper m* birligi stvol, otish qurollarining trubasimon qismi bo'lib, tushuncha tarkibidagi *Körper m*- tana ma'nosini ifodalaydi. Shu bilan birgalikda yana terminlar tizimidagi terminologik birliklarning asosiy qismini ot so'z turkumiga oid terminlar tashkil qilishiga ko'ra qolgan so'z turkumlari ham termin sirasiga kiritish yoki aksincha kiritmaslik doimo tadqiqotlar diqqat markazida. Shu o'rinda aytish lozimki, ma'lum bir soha tushunchasini anglatgan birlik qaysi so'z turkumiga tegishligidan qat'iy nazar termin deb qabul qilinishi lozim degan fikrni qo'llab quvvatlaymiz.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, tilshunoslikda terminlar doimo tadqiq qilinib kelinishining o'zi mavzu doirasida keng ko'lamlilik olib borilganligidan dalolat beradi. Maqolada tahlil qilinganidek, ularning struktur jihati, semantik xususiyati sifatida ma'nodoshlik, zid munosabat, shakldosh tushunchalar, polisemiya termilar tizimida uchraydigan jarayon. Bundan tashqari terminlarda umumleksik qatlam bilan doimo aloqada bo'lishi hamda ichki va tashqi imkoniyatlar asosida boyish imkoniyatining mavjudligi lingvistikada o'rganilgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 231 б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т ҳарфи. – 259 б. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк-молия терминологияси. Филол. фан. бўй. фал.докт. (PhD) дисс. – Т., 2020. – 152 б.
4. Ольшанский И.Г., Гусева А.Е. Лексикология современный немецкий язык– М.: Академия, 2005. – 416 с.